



BUYUK O‘TMISH VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH MOHIYATI

Jumanazarova Dilnoza Umirzaqovna

p.f.n., dotsent. Jizzax DPU

+998933006884

Annotatsiya. *Ushbu maqolada axloqiy madaniyat va shaxs ma'naviyatiga oid bo'lgan asosiy tushunchalar, ularning inson faoliyatida va axloqida namoyon bo'lib borishi to'g'risidagi fikrlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy fazilatlarning ijtimoiy-tarixiy va pedagogik-psixologik asoslari xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar. *Axloqiy madaniyat, shaxs ma'naviyati, ma'naviy-axloqiy fazilat, milliy o'zlik, ma'naviyat, axloq, odob, milliy tarbiya.*

Buyuk tarixni, xalqning shonli o'tmishini va milliy o'zlikni anglash masalalari jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida o'zining dolzarbligi bilan ijtimoiy taraqqiyotning yangilanish, yangi bir pog'onaga ko'tarilish davrida, sifat o'zgarishlari ro'y berayotgan davrda yanada ham kuchayadi. Chunki jamiyatning sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarilishi ma'naviyatning, axloqiylikning yanada yuksalishini talab etadi, faqat tarbiya orqaligina har bir jamiyat a'zosiga yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar singdiriladi. Ana shular evaziga insonning ijtimoiy faolligi oshadi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasi o'zgaradi. Bu esa jamiyatning navbatdagi taraqqiyotini yanada tezlashtiradi.

Buyuk tarix va o'tmish bilan faxrlanish uchun keksa tarixda, qadimgi ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz va momolarimiz faoliyatidan juda ko'plab misollar topiladi, ammo masalaning ikkinchi bo'lagi bo'lmish o'zlikni anglash birinchidan, odamning ozod, erkin, qiyosi yo'q, ulug' siymoligini anglash va o'zida unga amal qilish sifatlarini shakllantirib borish bo'lsa, ikkinchidan, uning o'ziga xos milliy-insoniy sifatlarini ochib beruvchi tarixiy-etnik, ma'naviy-insoniy asoslarini anglash va ularga amal qilishdan iboratdir. Odamzod o'zini o'zi anglar ekan, o'zida bor imkoniyatlarini yanada rivojlantiradi. Odam o'zini anglagandan keyin yangi qirralarini ochadi. O'z qadr-qiymati va boshqalarning fikri obyekt sifatida qaralishini inson hayoti davomida to'xtamaydi. Bunda har bir inson o'zligini topish uchun uni to'g'ri yo'lga boshlaydigan ustoz, hamroh yoxud to'g'ri tarbiya bergan ota-onaga muhtoj bo'ladi. Yuqoridagi sabablarsiz odamzod o'zligini anglamasdan oddiy hayot kechirib, o'zidan yaxshi nom qoldirmasdan ketishi mumkin.





O'zlikni anglash – insonning o'zini alohida vujud sifatida butun borliqdan ajrata bilishi, baholashi va qadriyat sifatida anglashini ifodalovchi tushuncha. O'zlikni anglash shaxsning o'zini haqiqiy inson muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarning egasi va ular uchun mas'ul ekanini, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiylikini tushunib yetishi jarayonida shakllanadi. O'zlikni anglash jamiyat oldida turgan vazifalarni to'g'ri anglash, ijtimoiy tajribalardan foydalanish qonuniyatlarini bilish, Vatan, millat oldidagi mas'uliyat tuyg'usi hamdir. O'zlikni anglash mudom tarixiy rivojlanib boradigan shakl va ko'rinishlarda, turli darajalarda namoyon bo'ladi. Uning birinchi shaklida inson his etish orqali o'zini tabiatdan, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardan ajrata biladi. O'zlikni anglashning ikkinchi shakli yanada yuqori darajada namoyon bo'lib, unda inson o'zini biror-bir jamoa, u yoki bu madaniyatga tegishli ekanligi orqali anglaydi. Va nihoyat, uchinchi, eng yuqori daraja – o'zini “men” orqali boshqalar nuqtai nazaridan baholashi, erkinligini his etgan holda har bir xatti-harakatiga bo'lgan mas'uliyatni his etishi, o'zi qilayotgan ishlarining to'g'ri-noto'g'riligi, haq yoki noxaqligini nazorat qila bilishidir. Bunda insonning dunyoqarashi, ma'naviyati va ma'rifatligi, uning individual tarzda shakllangani bilan belgilanadi.

O'zlikni anglashning shakllanish jarayoni va omillari Sharq hamda G'arb allomalari tomonidan har taraflama o'rganilgan. Sharq allomalaridan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Forobiy, Ibn Sino, Nasafiy, Navoiy, Mirzo Bobur va boshqalar o'zlikni anglashning ruhiy, botiniy jihatlarini, inson ma'naviyatining tarkibiy qismi, olam va odam munosabatini bilish asosi ekani kabi masalalarga e'tibor qaratganlar. G'arb allomalaridan Suqrot, F.Bekon, T.Gobbs, R.Dekart, F.Nisshe, Z.Freyd, E.Erikson, V.Gegel, I.Kant, N.Berdyayev va boshqalar o'zlikni anglashning zohiriy jihatlarini, uni ijtimoiy borliq, makon va zamonning faol ijodkorligi omili sifatida o'rganganlar. “Individual ong – o'zini anglashdir”, deb yozadi I.Kant. Tarixiy zaruriyat ostida “insonning jamiyat va boshqa kishilar bilan munosabatlari jarayonida o'zini nazorat etish va o'zini idora qilish kabi hayotiy muhim vosita sifatida paydo bo'lgan. Agar mehnat va jamiyat paydo bo'lmaganida kishida o'zlikni anglash ham shakllanmas edi. Shunday ekan, o'zlikni anglashsiz jamiyat va haqiqiy insoniy mehnat ham muvaffaqiyatli rivojlanmas edi”.

Kishidagi individual ong, o'zlikni anglash, o'zini nazorat etish, boshqarish tarixiy rivojlanish jarayonida, mehnat va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shakllana borgan. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida yangi davr faylasuflari va nemis mumtoz faylasuflari tomonidan rivojlantirilgan o'zlikni anglash to'g'risidagi qarashlar ham e'tiborga molikdir. Jumladan, yangi davr ijtimoiy-siyosiy





ta'limotlarida xususan, Dekart qarashlarida o'zlikni anglash “cogito ergo sum” tushunchasi orqali ifodalangan. Dekart “Agar men har qanday narsa va hodisa haqida fikr yuritadigan bo'lsam, men o'zimni subekt sifatida mavjudligimni his qilaman”, degan. O'zlikni anglash – bu faqat individual hodisa yoki jarayon bo'lmay, balki jamoa yoki birorbir xalqning maqsadli faoliyatidan ham iborat. Shu nuqtai nazardan ham milliy o'zlikni anglashning etnopsixologik jihatlarini tadqiq qilish shartdir. Masalan, uni shaxs (millat vakili) va guruh (etnos), millat va boshqa millat, an'anaviy ong va zamonaviy mentalitet, etnos va superetnos ongi, milliy o'zlikning mehnat faoliyatida, millatlararo munosabatlarda, turmush tarzida namoyon bo'lishi kabi yo'nalishlarda ochib berish mumkin. Gegel birinchi bo'lib ruh bilan o'zlikni anglash masalasini uyg'unlikda qaradi. “Bilishning haqligi o'zlikni anglashdadir, o'zlikni anglash esa bilishning asosidir, chunki boshqa predmetni har qanday bilishning mavjudligi o'zlikni anglashdadir. Men bilamanki, predmet meniki (u mening tasavvurim), shuning uchun uni bilganimda o'zimni anglayman”. Gegel o'zini anglashni: 1) o'zi-o'zi uchun mavjud, “yolg'iz o'zini anglash” yoki o'z nafsiga berilgan o'zini anglash; 2) yolg'iz o'zini anglashning boshqa o'zini anglashga o'tishi yoki yakka va umumiyning birlashishi; 3) bir-biriga yaqinlashgan o'zini anglash, ya'ni “umumiy o'zini anglash” darajasiga o'tishiga ajratadi. Keyin u ushbu bosqichlarning falsafiy-psixologik mohiyati va mexanizmlari haqida fikr yuritadi. O'zlikni anglash, vaziyatni idrok etish, yuzaga kelgan muammoga oqilona yondashish emas, kimningdir, goho “dohiy”larning da'vosi, shiori ommani harakatga keltiradi. Shuning uchun omma irrasionalga, hissiyotlarga to'la baqiriqqa, da'vatga bo'ysunadi. Bugungi kunda o'zlikni anglash ijtimoiy siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishni, bo'layotgan voqea-hodisalarni teran anglab yetishni bildiradi. O'zligini anglagan shaxs, ayniqsa, yoshlarimiz har qanday mafkuraviy xurujlarga berilmaydi.

Ma'naviy o'zlikni anglash – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga bel bog'lagan xalqimiz, ayniqsa, yoshlarda yuksak ma'naviyatni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismi, tarixiy xotirani tiklash, o'tmish avlodlarga munosib bo'lish, ular qoldirgan ma'naviy merosni asrab-avaylash va takomillashtirish omili. Ma'naviy o'zlikni anglash jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotini demokratlashtirish va yangilash, yangi tafakkurni shakllantirishning asosiy vositalaridan biridir. Ma'lumki, shaxsda ko'plab ijtimoiy-insoniy fazilatlar bilan birga ma'naviy o'zlikni anglash xususiyati ham mujassamdir. Bu g'oyat ko'p qirrali, murakkab, ayni paytda, ziddiyatli hayot ijtimoiy hodisa bo'lgani uchun unga kompleks yondashish talab etiladi. Avvalo, ma'naviy o'zlikni anglash keng ma'nodagi milliy o'zlikni anglashning tarkibiy qismidir. Shuning uchun ma'naviy



o'zlikni anglash milliy taraqqiyotning nafaqat belgisi, xuddi shuningdek, maqsadi hamdir. Demak, ma'naviy o'zlikni anglash ijtimoiy fenomen sifatida milliy taraqqiyot maqsadi bilan uyg'unlikda talqin etilishi zarur.

Ma'naviy o'zlikni anglash subyekt (shaxs, millat, xalq) ning ekzistensial borliqda o'zining tarixiy-madaniy, ijtimoiy-axloqiy diniy-ruhiy, badiiy-estetik qadriyatlariga, borliqni bilishda gnoseologik tajribalariga ega ekanini idrok etishidir. Ma'naviy o'zlikni anglashda "xalq ruhi", "xalq qalbi" degan tushunchalar muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham ma'naviyat muammolarini tadqiq etgan mutaxassislar "ruh", "qalb" kategoriyalariga murojaat qiladilar. Ma'naviy o'zlikni anglash, avvalo, kishining o'z ruhi va qalbini idrok etishi bo'lib, ijtimoiy darajada u xalqning o'ziga xos ruhiy-ma'naviy birligini ifoda etadi. Milliy o'zlikni anglashga taalluqli hodisa sifatida esa ma'naviy o'zlikni anglash ma'lum bir millat vakillarining qalbiga, ruhiga yaqin umumiy boyliklar, qadriyatlar, tasavvurlar, an'analar, ruhiy-ma'naviy holatlar asosida kishilarni xalq, millat sifatida birlashtiradi, ularga xos umumiy belgilar baxsh etadi. Odamlar har doim ma'lum bir g'oyalar atrofida birlashib, yirik ijtimoiy kuchga, harakatga aylangan.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, Yangi O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy vazifalarini amalga oshirish, eng avvalo, jamiyatning va uning har bir a'zosi – insonning yuksak ma'naviy-axloqiy madaniyatiga bog'liq. Aslida axloq inson - shaxs ma'naviyatini rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham bu xislatlarni farzandlarga va o'quvchi-yoshlarga singdirishni oilada, maktabda shakllantirish hamda kamol toptirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ta'kidlangan fazilatlar, xislat va sifatlarning yosh avlodni tarbiyalashdagi alohida-alohida o'z o'рни va salohiyati bor, mazmun-mohiyati bilan bog'liq amalga oshirilishi zarur bo'lgan pedagogik-didaktik vazifalari ham mavjud. Jamiyatda ham, kundalik hayotda ham ana shu ma'suliyatli vazifa eng avvalo, murabbiy-pedagoglar va ota-onalar zimmasiga tushishini unutmasligimiz zarur.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик - миллий ғоямизнинг пойдеворидир. «Tasvir» нашриёт уйи. - Тошкент – 2021.
2. Axmedova U. O‘zbek ayolining ijtimoiy-ma’naviy xulqi va uning istiqboli. XXI asr bo‘sag‘asida O‘zbekiston ayollarining ijtimoiy salohiyatini oshirishga ko‘maklashish imkoniyati //Simpozium materiallari //. T., 1999.
3. Barkamol avlod tarbiyasining ma’naviy va huquqiy jihatlari. T.: “Navro‘z”, 2013.
4. Byukenen Patrik Jozef. G‘arbning o‘limi. T.: “Ilm-Ziyo-Zakovat”, 2021.
5. Inomova M. Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi. T.: 1999.
6. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi: Ikki jildlik. J. I. T.:“O‘qituvchi”,1995.

